



NORMATIV-HUQUQIY HUJJATLAR LOYIHASINI ISHLAB CHIQISH VA KELISHISHNING YAGONA ELEKTRON TIZIMI

ID-8342 (V-2)



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI VAZIRLAR MAHKAMASI HUZURIDAGI AGROSANOAT MAJMUUI USTIDAN NAZORAT QILISH INSPEKSIYASI

Qishloq xo‘jaligi sohasiga oid huquqbuzarliklar havfini tahlil etish tizimi to‘g‘risidagi

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Tadbirkorlar huquqlari va qonuniy manfaatlarini ishonchli himoya qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2024-yil 14-noyabrdagi PF–184-son Farmoni hamda “Tadbirkorlik subyektlari faoliyatida tekshiruvlar o‘tkazishni muvofiqlashtirish tartibini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2022-yil 13-sentabrdagi PQ–374-son qarori, Vazirlar Mahkamasining “O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Agrosanoat majmui ustidan nazorat qilish inspeksiyasi faoliyatini tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to‘g‘risida” 2019-yil 12-iyuldagi 575-sonli qarori muvofiq **buyuraman:**

1. Qishloq xo‘jaligi sohasiga oid huquqbuzarliklar havfini tahlil etish “Yagona davlat nazorati” yagona axborot tizimidan foydalangan holda tekshirishlar, monitoring va profilaktik tadbirlarni olib borish bo‘yicha Nizom ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

2. “O‘zagroinspeksiya” boshlig‘ining 2024-yil 14-dekabrdagi C-5-24-sonli buyrug‘i o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblansin.

3. Mazkur buyruq O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi tadbirkorlik subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish bo‘yicha vakil hamda O‘zbekiston Savdo-sanoat palatasi bilan kelishilgan.

4. Ushbu buyruq rasmiy e'lon qilingan kundan e'tiboran kuchga kiradi.

Inspeksiya boshlig'i
30-Dekabr 2025-yil
UM-78-25 son



VAXABOV ABROL
DJABAROVICH

Kelishildi:

Rais
08-Yanvar 2026-yil



VAXABOV DAVRON
ABDUJALALOVICH

“O‘zagroinspeksiya” boshlig‘ining 2025-yil ____
____dagi ____-sonli buyrug‘iga ilova

Qishloq xo‘jaligi sohasiga oid huquqbuzarlik havfini tahlil etish tizimi to‘g‘risidagi NIZOM

1-bob. Umumiy qoidalar

1. Mazkur Nizom O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024 yil 14 noyabrdagi “Tadbirkorlar huquqlari va qonuniy manfaatlarini ishonchli himoya qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-184-son Farmoni va Vazirlar Mahkamasining 2022 yil 19 oktyabrdagi “Nazorat qiluvchi organlar tomonidan tadbirkorlik subyektlari faoliyatida davlat nazoratini tashkil etish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 611-son qaroriga asosan ishlab chiqilgan bo‘lib, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Agrosanoat majmui ustidan nazorat qilish inspeksiyasi (*bundan buyon matnda – “O‘zagroinspeksiya” deb yuritiladi*) tomonidan qishloq xo‘jaligi sohasidagi tadbirkorlik subyektlari faoliyatida huquqbuzarlik havfini tahlil etish elektron tizimini joriy qilish tartibini belgilaydi.

2. Mazkur Nizomda quyidagi asosiy tushunchalar qo‘llaniladi:

vakolatli organ — qonunchilik bilan tadbirkorlik subyektlari faoliyatida tekshiruvlarni muvofiqlashtirish hamda nazorat qiluvchi organlar tomonidan tadbirkorlik subyektlari faoliyatida tekshiruvlar o‘tkazilishining qonuniyligi ustidan nazoratni amalga oshirishga vakolat berilgan tashkilot;

nazorat qiluvchi organ —tadbirkorlik subyekti faoliyatini davlat tomonidan nazorat qilishga qonunchilik bilan vakolat berilgan vazirlik, idora, ularning tizimidagi bo‘linmalar va boshqa tashkilotlar;

tadbirkorlik subyektlari — belgilangan tartibda davlat ro‘yxatidan o‘tgan hamda tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirayotgan yuridik va jismoniy shaxslar;

tekshiruv — tadbirkorlik subyekti tomonidan faoliyatini tartibga soluvchi qonunchilikka qay darajada rioya etilayotganligini tekshirish uchun kerakli materiallar, hujjatlar yoki ularning faoliyatiga doir ma’lumotlarni olish hamda

muayyan harakatlarni amalga oshirish orqali nazorat qiluvchi organlar tomonidan o‘tkaziladigan nazorat tadbiri;

“xavfni tahlil etish” elektron tizimi — nazorat qiluvchi organlar tomonidan tegishli nazorat sohasi bo‘yicha aniq mezonlarga asoslanib, tadbirkorlik subyekti faoliyatida qonunchilik buzilish xavfi darajasini aniqlash elektron tizimi;

checklist — profilaktika tadbiri doirasida tadbirkorlik subyekti tomonidan to‘ldiriladigan namunaviy shakldagi savolnoma.

3. Ishlab chiqilgan “xavfni tahlil etish” elektron tizimi asosida aniqlangan huquqbuzarlik xavfi qay darajada bo‘lishidan qat’i nazar, tadbirkorlik subyektiga nisbatan ta’sir choralarini qo‘llashga asos bo‘la olmaydi.

4. Xavf darajasi tahlili jarayonida tadbirkorlik subyektidan hujjatlar va axborotlar talab qilinishiga yo‘l qo‘yilmaydi.

Tadbirkorlik subyektining qonunni buzish xavfi darajasini tahlil qilish jarayonida tadbirkorlik subyekti faoliyatini to‘xtatib turish, unga to‘sqinlik qilish yoki faoliyatini amalga oshirishga to‘g‘ridan-to‘g‘ri aralashish taqiqlanadi.

5. Xavf darajasi tahlili “O‘zagroinspeksiya” tomonidan bir yilda kamida bir marotaba “O‘zagroinspeksiya”ning nazorat vakolati doirasida faoliyat ko‘rsatuvchi tadbirkorlik subyektlarida o‘tkaziladi.

6. “O‘zagroinspeksiya”ning nazorat vakolati doirasiga kirmaydigan tadbirkorlik subyekti faoliyatini tahlil qilish va baholash taqiqlanadi.

7. Tadbirkorlik subyekti faoliyatida o‘tkaziladigan barcha tekshiruvlarni “Yagona davlat nazorati” axborot tizimida ro‘yxatdan o‘tkazish orqali Biznes-ombudsmanni xabardor etgan holda o‘tkazilishini nazarda tutishi lozim.

Bunda, tekshiriladigan tadbirkorlik subyekti aniq bo‘lmagan holatlarda, shuningdek, fuqarolarning hayoti va sog‘lig‘iga, jamoat xavfsizligiga, davlat manfaatlariga, atrof-muhitga zarar yetkazish xavfining tezkor oldini olish yoki bartaraf etish maqsadida quyidagi hollarda tadbirkorlik subyektlarida tekshiruv boshlangandan so‘ng 24 soat ichida “Yagona davlat nazorati” axborot tizimida ro‘yxatga olish orqali Biznes-ombudsmanni xabardor etish tartibida amalga oshiriladi:

yer uchastkalaridan maqsadli foydalanilishi ustidan, yer uchastkalariga bo'lgan huquqlarni davlat ro'yxatidan o'tkazishni amalga oshirmaslikka, o'zboshimchalik bilan yer uchastkalarini egallab olishga yoki ularning chegaralarini o'zgartirishga, yerlarning toifasidan qat'i nazar, barcha turdagi binolar va inshootlarni o'zboshimchalik bilan qurishga yo'l qo'ymaslik ustidan davlat nazoratini amalga oshirish;

mulkchilik shaklidan qat'i nazar qishloq xo'jaligi, melioratsiya va yo'l-qurilish texnikalaridan foydalanish qoidalariga rioya etilishi ustidan amalga oshiriladigan nazorat tadbirlari.

8. Xavf darajasining tahlili quyidagi ma'lumotlarni o'rganish asosida amalga oshirilishi mumkin:

ma'muriy ma'lumotlar (litsenziya, ruxsat etuvchi va davlat organlarida mavjud boshqa hujjatlar);

davriy statistika ma'lumotlari, jumladan, avval huquqbuzarlik holatlari aniqlangan tadbirkorlik subyektini umumlashtiruvchi belgilar, xabarlar va boshqa korrelatsion tahlil natijalari;

yuridik va jismoniy shaxslardan kelib tushgan murojaatlar;

ommaviy axborot vositalaridan yoki boshqa tashqi manbalardan (ijtimoiy tarmoqlar, veb-saytlar) olingan ma'lumotlar;

qonunchilikda taqiqlanmagan boshqa manbalardan va tadbirkorlik subyektining odatiy faoliyatiga bevosita yoki bilvosita ta'sir ko'rsatmagan holda, davlat organlari va boshqa tashkilotlardan olinishi mumkin bo'lgan boshqa ma'lumotlar.

Bunda jismoniy va yuridik shaxslar murojaatlarining anonim emasligi hamda tekshiruv o'tkazilishi rejalashtirilayotgan tadbirkorlik subyektining amalda faoliyat ko'rsatayotganligi, "O'zagroinspeksiya" xodimlari tomonidan dastlab o'rganib chiqilishi lozim.

9. Xavf darajasini baholash o'rganiladigan ma'lumotlar asosida shakllantirilgan ko'rsatkichlar va mezonlarga "O'zagroinspeksiya"ning nazorat

vakolati doirasida tegishli yo‘nalishlar kesimida faoliyat ko‘rsatuvchi tadbirkorlik subyektlari faoliyatining muvofiqligini “ball” tizimi asosida (1-ildovaga muvofiq) baholash orqali amalga oshiriladi.

2-bob. Tadbirkorlik subyekti faoliyatida huquqbuzarlik alomatlari haqida xabar beruvchi baholash mezonlari

10. Xavf darajasi tahlili quyidagi yo‘nalishlarda faoliyat ko‘rsatuvchi tadbirkorlik subyektlaridan olingan ma‘lumotlarni o‘rganish asosida belgilangan baholash mezonlariga muvofiq amalga oshiriladi:

qishloq xo‘jaligi, melioratsiya va yo‘l-qurilish texnikalarini nazorat qilish sohasini baholash;

qishloq xo‘jaligida agrotexnik tadbirlarni tashkil etilishini nazorat qilish sohasini baholash;

qishloq xo‘jaligi yerlardan foydalanishni nazorat qilish sohasini baholash;

qishloq xo‘jaligi ekinlari urug‘liklari mahsulotlarni nazorat qilish sohasini baholash;

paxta, boshoqli don, texnik chigit va ulardan qayta ishlangan mahsulotlarni nazorat qilish sohasini baholash.

11. Har bir asosiy ko‘rsatkichlarning bahosi ushbu ko‘rsatkichlarning muhimlik darajasidan kelib chiqqan holda bir-biridan farq qilishi mumkin.

12. Asosiy ko‘rsatkichlar ballari yig‘indisi 2-2^g-ildovalarga muvofiq shakllantiriladi.

3-bob. Xavf darajalari tasnifi

13. Amalga oshirilgan baholash natijalariga ko‘ra aniqlangan xavf darajasi umumiy ballari asosida tadbirkorlik subyektlari tomonidan qishloq xo‘jaligi sohasiga oid huquqbuzarlik sodir etish xavfi quyidagi 3 xil turga tasniflanadi:

xavfi yuqori – baholash natijalari bo‘yicha 81 va undan yuqori ballarni tashkil etuvchi tadbirkorlik subyektlari;

xavfi o‘rta – baholash natijalari bo‘yicha 61 balldan 80 ballgacha bo‘lgan ballarni tashkil etuvchi tadbirkorlik subyektlari;

xavfi past – baholash natijalari bo‘yicha 60 ball va undan kam bo‘lgan tadbirkorlik subyektlari.

4-bob. Tasniflangan xavf darajalari doirasida amalga oshiriladigan tadbirlar

14. Baholash natijalariga muvofiq huquqbuzarlik xavfi yuqori va o‘rta tasnifidagi tadbirkorlik subyektlarida qonunbuzilish holatlarining oldini olishga qaratilgan profilaktika tadbirlari o‘tkaziladi.

15. Baholash natijalariga muvofiq xavf darajasi yuqori bo‘lgan tadbirkorlik subyektlari faoliyatida yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan xavflarning oldini olishga qaratilgan profilaktika tadbirlari o‘tkaziladi va tekshiruvga tashabbus qilinishi mumkin.

Xavf darajasi o‘rta bo‘lgan tadbirkorlik subyektlari faoliyatida yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan xavflarning oldini olishga qaratilgan profilaktika tadbirlari o‘tkazilgandan so‘ng ham huquqbuzarlik sodir etish alomatlari (*bir chorak davomida*) ijobiy tomonga o‘zgarmagan holatlardagina tekshiruvga tashabbus qilinishi mumkin.

Bunda, “xavfni tahlil etish” elektron tizimi natijalariga asosan o‘tkaziladigan tekshiruvlarning boshlanishi haqida kamida o‘n ish kuni oldin tadbirkorlik subyektini uning axborot tizimidagi shaxsiy kabineti yoki pochta aloqasi (agar elektron shaklda xabardor etishning texnik imkoniyati mavjud bo‘lmasa) orqali xabardor qilinadi (Tekshiruv boshlangandan so‘ng 24 soat ichida xabardor etiladigan tekshirishlar bundan mustasno).

16. Huquqbuzarlik sodir etish xavfi yuqori va o‘rta tasnifidagi tadbirkorlik subyektlarida profilaktika tadbirlarini o‘tkazmasdan va ularning natijasini kutmasdan quyidagi holatlar doirasida tadbirkorlik subyektida tekshiruv o‘tkazish tashabbusi bilan chiqish mumkin:

aniq fakt va hollar bo‘yicha fuqarolarning hayoti va sog‘lig‘iga, jamoat xavfsizligi, atrof-muhitga, jismoniy va yuridik shaxslarning hamda davlat

manfaatlariga zarar yetkazish xavfining oldini olish yoki bartaraf etish uchun (jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari, davlat organlari va tashkilotlari ma'lumotlari, ommaviy axborot vositalari va boshqa axborot manbalaridan olingan ma'lumotlar);

tadbirkorlik subyekti tegishli litsenziyasiz yoki ruxsat etuvchi xujjatlarsiz noqonuniy faoliyat ko'rsatayotganligi aniqlanganda.

17. Tadbirkorlik subyektida qonun buzilishi holatlariga yo'l qo'ymaslikka qaratilgan profilaktika tadbirlari o'tkazish jarayonida tadbirkorlik subyektlariga o'rnatilgan tartibda tasdiqlangan cheklist taqdim etish, cheklist to'ldirilishi natijalari bo'yicha ular faoliyatida qonunbuzilishlarga olib kelishi mumkin bo'lgan kamchiliklarni bartaraf etishga ko'maklashiladi.

18. Xavf darajasi past bo'lgan tadbirkorlik subyektlari faoliyatida nazorat qiluvchi organlar tomonidan tekshiruvlar o'tkazilmaydi.

5-bob. Yakuniy qoidalar

19. Mazkur Nizom talablari buzilishida aybdor bo'lgan shaxslar qonun hujjatlarida belgilangan tartibda javobgar bo'ladilar.

20. Tadbirkorlik subyektida tekshirish o'tkazilgandan keyin ushbu tadbirkorlik subyektining "xavfni tahlil etish" tizimiga asosan baholangan ballar yig'indisi yangilanadi.

21. Qonun buzilishi holatlariga yo'l qo'ymaslikka qaratilgan profilaktika tadbirlari o'tkazilgandan so'ng huquqbuzarlik sodir etish alomatlari bartaraf etilib, bu haqida nazorat qiluvchi organ xabardor qilinganda, ushbu tadbirkorlik subyektining kamchilik bartaraf qilingan qismi bo'yicha ballari yangilanadi.

22. Mazkur Nizomning 2-2^g-ilovalari "O'zagroinspeksiya" tashabbusi bilan vakolatli organlar bilan kelishilgan holda o'zgartirish va qo'shimchalar kiritiladi.

23. "Yagona davlat nazorati" axborot tizimiga yuklanadigan har bir tadbirkorlik subyekti kesimida aniqlangan xavf darajalarini aniq ko'rsatgan holda (3-ilovaga muvofiq) ma'lumotnoma tuziladi.

24. Qishloq xo'jaligi sohasiga oid huquqbuzarlik sodir etish xavfni tahlil etish natijalaridan norozi bo'lgan shaxslar qonunda belgilangan tartibda yuqori turuvchi organga yoki sudga shikoyat qilishga haqli.

25. Ushbu Nizom O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Tadbirkorlik subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish bo'yicha vakil va O'zbekiston Respublikasi Savdo-sanoat Palatasi bilan kelishilgan.

Qishloq xo‘jaligi sohasiga oid huquqbuzarlik havfini tahlil
etish tizimi to‘g‘risidagi Nizomga 1-ilova

**Qishloq xo‘jaligi sohasida tadbirkorlik subyektlari tomonidan o‘z faoliyatida
huquqbuzarlik sodir etish xavfi mavjud bo‘lgan tadbirkorlik sub’ektlari
ro‘yxatini shakllantirish JADVALI**

T/r	Qishloq xo‘jaligi sohasida faoliyat ko‘rsatuvchi tadbirkorlik subyektlari tomonidan (<i>yo‘nalish nomi ko‘rsatiladi</i>) xavf darajasi belgilanganligi yuzasidan tahlil o‘tkaziladigan tadbirkorlik subyektining nomi	Tahlil natijasi bo‘yicha jami ballar yig‘indisi

Qishloq xo‘jaligi sohasiga oid huquqbuzarlik havfini tahlil
etish tizimi to‘g‘risidagi Nizomga 2-ilova

**Qishloq xo‘jaligi, melioratsiya va yo‘l-qurilish texnikalarini
nazorat qilish sohasini baholash jarayonida tadbirkorlik subyekti
faoliyatida huquqbuzarlik alomatlari mavjud bo‘ladigan
KO‘RSATKICHLAR**

t/r	Xavf darajasini baholash ko‘rsatkichlari	Ball
1	“O‘zagroinspeksiya”ning ogohnoma va qonuniy talablarini bajarmaslik yoki o‘z vaqtida bajarmaslik yohud qisman bajarmaslik.	10
2	Qishloq xo‘jaligi, melioratsiya va yo‘l-qurilish texnikalaridan majburiy texnik ko‘rikdan o‘tkazmasdan foydalanish.	10
3	Traktorlar, kombaynlar, boshqa o‘ziyurar qishloq xo‘jalik, melioratsiya, yo‘l-qurilish mashinalaridan texnik jihatdan foydalanish qoidalarini va texnika xavfsizligi qoidalarini buzish.	10
4	Foydalanish belgilangan tartibda man etilgan transport vositalarini, xuddi shuningdek davlat raqam belgisi o‘zboshimchalik bilan yechib olingan transport vositalarini boshqarish.	10
5	Korxonalar, muassasalar va tashkilotlarga qarashli transport vositalarini ishdan tashqari vaqtda ulardan foydalanish shartlariga muvofiq keladigan tarzda maxsus jihozlanmagan joyda saqlash.	10
6	Qishloq xo‘jaligi, melioratsiya va yo‘l-qurilish texnikalarini boshqarish xuquqi bo‘lmagan (toifalari bo‘yicha) mexanizatorlarni boshqarish	10
7	Qishloq xo‘jaligi, melioratsiya va yo‘l-qurilish texnikalaridan tegishli hujjatlarsiz va belgilangan talablarga zid ravishda foydalanish.	10
8	Qishloq xo‘jaligi, melioratsiya va yo‘l-qurilish texnikalarini hisobdan chiqarish talablariga rioya etmaslik.	10
9	Transport vositalaridan foydalanish vaqtida belgilangan tartibda davlat ro‘yxatidan o‘tkazilmagan transport vositalaridan foydalanish.	10
10	Transport vositalaridan foydalanishda nosozligi bo‘lgan yoki muayyan shartlar tufayli transport vositasidan foydalanish taqiqlangan yoki tegishli ruxsatnomasiz qayta jihozlangan transport vositalaridan foydalanish.	10
	Jami ballar yig‘indisi	100

Qishloq xo'jaligi sohasiga oid huquqbuzarlik havfini tahlil
etish tizimi to'g'risidagi Nizomga 2^a-ilova

**Qishloq xo'jaligida agrotexnik tadbirlarni tashkil etilishini
nazorat qilish sohasini baholash jarayonida tadbirkorlik subyekti
faoliyatida huquqbuzarlik alomatlari mavjud bo'ladigan
KO'RSATKICHLAR**

t/r	Xavf darajasini baholash ko'rsatkichlari	Ball
1	“O'zagroinspeksiya”ning ogohnoma va qonuniy talablarini bajarmaslik yoki o'z vaqtida bajarmaslik.	10
2	Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirishda agrotexnik tadbirlar o'tkazish talablarining buzilishi.	10
3	Qishloq xo'jaligi ekinlarini joylashtirish talablarining buzilishi.	10
4	Qishloq xo'jaligi ekinlarini ekish uchun yer tayyorlash va ekish talablarining buzilishi.	10
5	Qishloq xo'jaligi ekinlarini yetishtirishda mineral va mahalliy o'g'itlar bilan oziqlantirish talablarini buzilishi.	10
6	Qishloq xo'jaligi ekinlarini ekish va ekish bilan bog'liq hamda o'sish (vegetatsiya) davrida bajariladigan agrotexnik tadbirlarning o'z vaqtida va sifatli amalga oshirmaslik.	15
7	Shudgorlash ishlarini o'z muddatida, sifatli amalga oshirilmaganligi.	10
8	Qishloq xo'jaligi ekinlari maydonlarida begona o'tlar, hashoratlar, zararkunanda va kasalliklariga qarshi biologik va kimyoviy kurash ishlarini sifatsiz yoki kech o'tkazilganligi yoki o'tkazilmaganligi.	15
9	Qishloq xo'jaligi agrotexnik tadbirlarida foydalanish uchun o'simliklarni himoya qilish vositalarini, ularning o'sishini tezlashtiruvchi vositalarni, mineral o'g'itlarni hamda boshqa kimyoviy vositalarni tashish, saqlash, ulardan foydalanish qoidalarini buzish.	10
	Jami ballar yig'indisi	100

Qishloq xo‘jaligi sohasiga oid huquqbuzarlik havfini tahlil
etish tizimi to‘g‘risidagi Nizomga 2^b-ilova

**Qishloq xo‘jaligi yerlardan foydalanishni nazorat qilish sohasini
baholash jarayonida tadbirkorlik subyekti faoliyatida
huquqbuzarlik alomatlari mavjud bo‘ladigan
KO‘RSATKICHLAR**

t/r	Xavf darajasini baholash ko‘rsatkichlari	Ball
1	“O‘zagroinspeksiya”ning ogohnoma va qonuniy talablarini bajarmaslik yoki o‘z vaqtida bajarmaslik.	10
2	Qishloq xo‘jaligi yerlaridan xo‘jasizlarcha foydalanish, ob‘ektlar qurish paytida unumdor qatlamni olmaslik, yer uchastkalaridan ruxsat etilgan foydalanishning asosiy turiga nomuvofiq foydalanish.	15
3	Qishloq xo‘jaligi yerlarini foydalanishdan chiqarishga, hosildorlik pasayishiga, tuproqning buzilishi yoki yo‘q bo‘lib ketishiga olib keladigan boshqa harakatlarni sodir etish.	15
4	Tasdiqlangan yer tuzish loyiha hujjatlaridan tegishli ruxsat bo‘lmay turib chetga chiqish, xuddi shuningdek tegishli organlar bilan kelishmay turib ob‘ektlarni joylashtirish, loyihalashtirish, qurish va ulardan foydalanish.	10
5	Qishloq xo‘jaligi yerlaridan belgilangan maqsadlarda foydalanmaslik.	10
6	Sug‘oriladigan qishloq xo‘jaligi yerlariga qishloq xo‘jaligi ekinlarining ekilmasdan qoldirish;	10
7	Qishloq xo‘jaligi yerlaridan foydalanuvchilar tomonidan yer uchastkalarini o‘zboshimchalik bilan egallashga yo‘l qo‘ymaslik bo‘yicha majburiyatlarining bajarmaslik.	10
8	Qishloq xo‘jaligi yerlarini yaxshilash hamda muhofaza qilish, shu jumladan yer uchastkasidan ruxsat etilgan foydalanishning asosiy turiga nomuvofiq foydalanishi.	10
9	Qishloq xo‘jaligi yerlarini yaroqsiz holga tushirish, ularni ishlab chiqarish chiqitlari va boshqa chiqindilar, kimyoviy va radioaktiv moddalar bilan ifloslantirish qoidalariga amal qilmaslik.	10
	Jami ballar yig‘indisi	100

Qishloq xo'jaligi sohasiga oid huquqbuzarlik havfini tahlil
etish tizimi to'g'risidagi Nizomga 2^v-ilova

**Qishloq xo'jaligi ekinlari urug'liklarini nazorat qilish sohasini
baholash jarayonida tadbirkorlik subyekti faoliyatida
huquqbuzarlik alomatlari mavjud bo'ladigan
KO'RSATKICHLAR**

t/r	Xavf darajasini baholash ko'rsatkichlari	Ball
1	Urug'lik yetishtirish bo'yicha shartnomaviy majburiyatlarni, shuningdek, "O'zagroinspeksiya"ning ogohnoma va qonuniy talablarini bajarmaslik.	10
2	Urug'lik yetishtiruvchi subyektlarning amaldagi tartib va shartlarga ko'ra urug'liklarni yer maydonlariga to'g'ri hamda hududni tuproq iqlim sharoitiga mos joylashtirish holatiga rioya etmaganligi.	10
3	Qishloq xo'jaligi ekinlarini yetishtiruvchi subyektlarning yer maydonlarda ekilgan, qishloq xo'jaligi ekinlari, nav va duragaylar, urug'liklar hamda ko'chat va ko'chat materiallarini respublika hududida ekish uchun tavsiya etilgan qishloq xo'jaligi ekinlari davlat reestriga kiritish amaldagi tartibga nomuvofiq bajarilganligi.	10
4	Qishloq xo'jaligi ekinlarini yetishtiruvchi subyektlarning urug'lik maqsadlar uchun xorijiy, mahalliy navlar va ko'chatlar qishloq xo'jaligi ekinlarini yetishtirishda agrotexnik tadbirlar qoidalariga amalga qilmaganligi va urug'lik yetishtirish yuzasidan mavjud tavsiya va yo'riqnomalardagi tadbirlarni bajarmaslik.	10
5	Qishloq xo'jaligi mahsulotini va urug'liklarni qabul qilish, saqlash, qayta ishlash hamda ulardan foydalanish, urug'lik xarid qilish va qabul qilish bo'yicha belgilangan talablarni bajarmaslik.	15
6	Urug'likni tayyorlashda davlat standartlariga amal qilmaslik, shuningdek agrosanoat majmui sohasida texnologik jarayonlar talablarini buzganlik.	15
7	Qishloq xo'jaligi ekinlarini ekuvchilar tomonidan import qilinadigan hamda mahalliy qishloq xo'jaligi ekinlarining barcha turdagi urug'liklari, ko'chat hamda ko'chat materiallarining raqamli QR kod bilan yorliqlangan holda foydalanish talablarini bajarmaslik.	15
8	"In-vitro" laboratoriyalarida tayyorlangan ko'chat va ko'chat materiallari hamda kartoshkaning mini tuganaklarini belgilangan standart talablariga rioya qilmagan holda yetishtirilishi va raqamli QR kodlanmagan holda realizatsiya qilinganlik.	15
	Jami ballar yig'indisi	100

Qishloq xo'jaligi sohasiga oid huquqbuzarlik havfini tahlil
etish tizimi to'g'risidagi Nizomga 2^g-ilova

**Paxta, boshqoli don, texnik chigit va ulardan qayta ishlangan
mahsulotlarni nazorat qilish sohasini baholash jarayonida
tadbirkorlik sub'ekti faoliyatida huquqbuzarlik alomatlari
mavjud bo'ladigan KO'RSATKICHLAR**

t/r	Xavf darajasini baholash ko'rsatkichlari	Ball
1	“O'zagroinspeksiya”ning ogohnoma va qonuniy talablarini bajarmaslik yoki o'z vaqtida bajarmaslik.	10
2	Paxta xom-ashyosi, don va don mahsulotlari hamda texnik chigitni qabul qilish va saqlash qoidalarini buzilishi hamda qabul qiluvchi, saqlovchi va qayta ishlovchi korxonalarining texnik holati ta'minlash tartibini buzish.	15
3	Paxta xom-ashyosi, don va don mahsulotlari hamda texnik chigitni to'liq texnologik siklda qayta ishlash tartibini buzish hamda tegishli hujjatlarsiz faoliyat yuritish.	15
4	Paxta xom-ashyosi, don va don mahsulotlari hamda texnik chigitni qayta ishlashda belgilangan talablarga, cheklashlar va shartlarga, shu jumladan mahsulotlarning chiqish miqdorlari hamda tabiiy kamayish me'yorlariga rioya etmaslik.	15
5	Paxta xom-ashyosini, don va don mahsulotlarini hamda texnik chigitni qayta ishlashdan olingan mahsulotlarni realizatsiya qilish qoidalarini, shuningdek, boshqoli don partiyalari bo'yicha tuziladigan tozalov dalolatnomalarini buzish.	10
6	Paxta xom-ashyosi, don va don mahsulotlari hamda texnik chigitni qayta ishlashdan olingan mahsulotlardan maqsadli foydalanmaslik va ularni sifatli saqlash, qadoqlash, o'rab joylash, markalash hamda tashish qoidalarini buzish.	15
7	Xo'jalik faoliyatida texnologik reglamentlar va standartlar majburiy talablariga rioya etmaslik.	10
8	Xo'jalik faoliyatida metrologiya, sertifikatlashtirish va muvofiqlik to'g'risidagi deklaratsiya rasmiylashtirish qoidalarini buzish.	10
	Jami ballar yig'indisi	100

Qishloq xo'jaligi sohasiga oid huquqbuzarlik havfini tahlil etish
tizimi to'g'risidagi Nizomga 3-ilova

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi
huzuridagi Agrosanoat majmui ustidan nazorat qilish inspeksiyasi
xodimlari tomonidan qonunbuzilish xavfini tahlil etish tizimiga
kiritilgan tadbirkorlik subyektini xavf darajasi to'g'risidagi
MA'LUMOTNOMA

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Agrosanoat majmui ustidan nazorat qilish inspeksiyasi mutaxassisi (F.I.O) tomonidan "O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Agrosanoat majmui ustidan nazorat qilish inspeksiyasida qishloq xo'jaligi sohasiga oid huquqbuzarlik havfini tahlil etish tizimini joriy etish tartibi to'g'risida"gi Nizomga asosan (tadbirkorlik subyektini nomi, STIR raqami) tadbirkorlik subyektida qonunbuzilish xavfi tahlili o'tkazildi.

Mazkur Nizomning 2-bobiga muvofiq tadbirkorlik subyektini faoliyatida huquqbuzarlik alomatlari haqida xabar beruvchi baholash mezonlari bo'yicha o'tkazilgan tahlil natijasiga ko'ra tadbirkorlik subyektini (to'plangan ball ko'rsatiladi) ballik ko'rsatkichiga ega bo'ldi.

O'tkazilgan tahlil natijasida Nizomning (Nizomning 2–2⁹-ilovalarida ko'rsatilgan tadbirkorlik subyektini faoliyatida huquqbuzarlik alomatlari mavjud bo'ladigan ko'rsatkichlarning qaysi bandlari buzilganligi ko'rsatiladi) bandlari buzilganligi va (talablari buzilgan normativ hujjatlar ko'rsatiladi) normativ hujjatlar talablariga rioya qilinmaganligi aniqlandi.

Baholash natijalariga muvofiq huquqbuzarlik **xavfi yuqori** yoki **o'rta** tasnifidagi tadbirkorlik subyektida qonun buzilish holatlarining oldini olishga qaratilgan profilaktika tadbirlari o'tkazildi.

(tadbirkorlik subyektini nomi, STIR raqami)da profilaktika tadbirlari o'tkazilgandan so'ng ham huquqbuzarlik sodir etish alomatlari ijobiy tomonga o'zgarmaganligini inobatga olgan holda mazkur tadbirkorlik subyektida tekshirish o'tkazilishi maqsadga muvofiq deb hisoblayman.

Tahlil o'tkazgan xodim

imzo

F.I.Sh.

